

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.U.Xamidjanov</b>	
Sport kurashi turlariga saralash va erta yo'naltirishda yakkakurash elementlariga ega harakatlari o'yinlardan foydalanish metodlari.....	85
<b>A.A.Parmonov</b>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida aksiologik yondashuv asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishga doir tajriba-sinov ishlari natijalarini ilmiy-nazariy tahlili .....	90
<b>M.A.Tursunboyeva</b>	
Tabiiy fanlar fakultetlarida ingliz tilini o'qitishning mazmuni tushunchasining lingvodidaktik tavsifi .....	97
<b>M.I.Boymanova</b>	
Xalqaro baholash dasturlari talablari asosida o'quvchilar kompetentsiyasini shakllantirish .....	102
<b>A.Matkarmov</b>	
O'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyatini ta'minlashning ijtimoiy-pedagogik omillari (xalqaro baholash tadqiqotlari misolida) .....	105
<b>N.M.Xodjibolayeva</b>	
Al-Farg'oniy va Abu Rayhon Beruniyning tabiiy-ilmiy qarashlari asosida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirish masalalari .....	110
<b>M.Sh.Dehqonova</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarda loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish konsepsiysi .....	114
<b>N.Sayimbetova</b>	
Talabalarni loyihaviy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari .....	117
<b>A.Abdullayev</b>	
Jismoniy mashqlar inson "Hayotiy quvvati"ni tiklash vositasi .....	121
<b>J.Sh.Mamayusupov</b>	
Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish zarurati .....	125
<b>S.Abdullayev</b>	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini kognitiv kompetentligini shakllantirishning pedagogik mazmuni .....	129
<b>D.O.Djalilova</b>	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining germenevtik kompetentligini rivojlantirishning mazmun-mohiyati .....	138
<b>М.М.Азизов</b>	
Что такое нордическая ходьба (nordic walking), финская ходьба, северная ходьба с палками, скандинавская ходьба? .....	141
<b>L.Z.Xolmurodov</b>	
9-10 yoshdagи bolalarning muvozanat saqlash funksiyasini rivojlantirishning yoshga xos me'yorlari .....	147
<b>I.M.Saidov</b>	
Ijtimoiy-madaniy kompetentlikning ilmiy tavsifi .....	151
<b>O.A.Xo'jaqulov</b>	
Bo'lajak ichki ishlar organlari xodimlarida kasbiy kompyetyentlikni rivojlantirishning pyedagogik shart-sharoitlari .....	155

## FALSAFA

<b>A.A.Qambarov</b>	
Abdurauf fitrat ijtimoiy-siyosiy va madaniy faoliyatining falsafiy tahlili .....	161
<b>B.B.Namozov</b>	
Movarounnahrda temuriylar davrida tasavvuf ijtimoiy ma'naviy hodisa sifatida .....	166
<b>M.T.Voxidova</b>	
Yoshlarda barqarorlik va bag'rikenglikni namoyon bo'lishining ijtimoiy-axloqiy jihatlari .....	172
<b>I.M.Arzimatova</b>	
Ayol rahbarlarning axloqiy va estetik madaniyatini integratsiyalash asosida "Rahbar ayol" portretini shakllantirish vazifalari .....	176

**BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARIDA AKSIOLOGIK YONDASHUV  
ASOSIDA AKMEOLOGIK MOTIVATSIYANI RIVOJLANTIRISHGA DOIR TAJRIBA-SINOV  
ISHLARI NATIJALARINI ILMIY-NAZARIY TAHLILI**

**НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕЗУЛЬТАТОВ ОПЫТНО-  
ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЙ РАБОТЫ ПО РАЗВИТИЮ АКМЕОЛОГИЧЕСКОЙ МОТИВАЦИИ У  
БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ НА ОСНОВЕ АКСИОЛОГИЧЕСКОГО  
ПОДХОДА**

**SCIENTIFIC AND THEORETICAL ANALYSIS OF THE RESULTS OF EXPERIMENTAL  
WORK ON THE DEVELOPMENT OF ACMEOLOGICAL MOTIVATION IN FUTURE PHYSICAL  
EDUCATION TEACHERS BASED ON AN AXIOLOGICAL APPROACH**

**Parmonov Akmal Abdupattayevich<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Qo'qon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya**

*Mazkur maqolada bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash tizimini isloq qilish negizida ularda akmeologik motivatsiyani rivojlantirishning pedagogik jihatlarini ochib berishga qaratilgan. Maqolada keldtirilgan tadqiqot ishi bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishda akmeologik yondashuvning qo'llash va innovasion pedagogik jarayonning samaradorligini aniqlashni maqsad qilingan.*

**Аннотация**

*В данной статье на основе реформирования системы подготовки будущих учителей физического воспитания ставится сел раскрытым педагогические аспекты развития акмеологической мотивации. Исследование, упомянутое в статье, направлено на определение эффективности применения акмеологического подхода и инновационного педагогического процесса в развитии акмеологической мотивации у будущих педагогов социального образования.*

**Abstract**

*In this article, on the basis of reforming the training system of future physical education teachers, it is aimed to reveal the pedagogical aspects of the development of acmeological motivation. The research mentioned in the article aims to determine the effectiveness of the application of the acmeological approach and the innovative pedagogical process in the development of acmeological motivation in the future teachers of social education.*

**Kalit so'zlar:** bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilar, akmeologik motivatsiya, akmeologik yondashuv, innovasion pedagogik jarayonning samaradorligi, tajriba-sinov ishlari, samarali metod va vositalar, pedagogik amaliyat.

**Ключевые слова:** будущие учителя физкультуры, акмеологическая мотивация, акмеологический подход, эффективность инновационного педагогического процесса, экспериментальная работа, эффективные методы и средства, педагогическая практика.

**Key words:** future physical education teachers, acmeological motivation, acmeological approach, effectiveness of innovative pedagogical process, experimental work, effective methods and tools, pedagogical practice.

**KIRISH**

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishda aksiologik yondashuvdan foydalanish va mazkur pedagogik jarayon uchun eng samarali ta'lif texnologiyasini ishlab chiqish va uni samaradorligini sinovdan o'tkazish tadqiqot ishining muhim bosqichi hisoblandi. Bu jarayonda tadqiqot ishining ilmiy farazini tajribadan o'tkazish, samaradorligini aniqlash va ommaviylashtirish tamoyillarini ishlab chiqish muhim vazifalardan biridir.

Tadqiqot doirasida tajriba-sinov ishlaringning umumiyligi maqsadi bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishda aksiologik yondashuvdan foydalanishning innovasion usullarini tahlil qilish, ularda o'z akmelarini rivojlantirishning samarali metod va vositalarini pedagogik amaliyotda sinab ko'rishdan iborat. Buning uchun tadqiqot ishi doirasida aksiologik yondashuvdan foydalanish maqsad qilingan.

Tajriba-sinov ishlari aksiologik yondashuv asosida pedagogik faoliyatni tashkil etish, jismoniy ta'linda o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltiruvchi jarayonni tashkil etish, akmeni o'stiruvchi omillarni aniqlash maqsad qilingan.

Tajriba jarayonida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishda aksiologik yondashuvdan foydalanishga asoslangan ta'lif metodikasidan foydalanildi. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishda

## PEDAGOGIKA

aksiologik yondashuvdan foydalanish to'rt bosqichda amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlaringning natijalari bo'yicha samaradorlik aniqlandi.

- jismoniy ta'lif fanlaridan bilimlilik darajasi va jismoniy-aqliy salohiyati asosida;
- akmeologik motivatsiyani rivojlantirish yo'naliishlari bo'yicha;
- jismoniy imkoniyatlari asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirish metod va vositalari bo'yicha;
- aksiologik yondashuv asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirish samaradorligini tajriba qilish bo'yicha.

Mazkur qayd etilgan yo'naliishlar bo'yicha olingen ma'lumotlar taqqoslandi va umumlashtirildi.

Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda amalga oshirildi:

Tajriba-sinov ishlaringning birinchi bosqichining asosiy maqsadi, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida akmeologik motivatsiyani rivojlantirish holatini o'rganish, kamchiliklarni tahlil qilish va mavjud ziddiyatlarni aniqlashdan iborat [1]. Maqsaddan kelib chiqqan holda, quyidagi vazifalar belgilandi va amalga oshirildi:

- bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida akmeologik motivatsiyani rivojalanganlik holati o'rganildi, u asosida test va so'rovnomalari ishlab chiqildi;
- bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida akmeologik motivatsiyani rivojlangantirishda professor-o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajasi, ilmiy salohiyati aniqlandi;
- anketa va test savollari yordamida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishga doir bilim, ko'nikma va malakalari tizimi o'rganildi;
- bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishda aksiologik yondashuvdan foydalanish asosida olib borilayotgan o'quv-uslubiy va pedagogik jarayon va mustaqil ta'lifni tashkil etish jarayoni bilan tanishildi.

Tadqiqot uchun quyidagi qoidalar konseptual ahamiyatli hisoblanadi:

- ta'lif oluvchi uchun sifatli ta'lif ochiq bo'lishi kerak;
- o'quv jarayoni ta'lif beruvchi va ta'lif oluvchining «birdamligi» asosi strukturalanadi, bu olingen maqsadlarga nisbatan vaqtincha rozilikni anglatadi;
- o'quv jarayoni tashkiliy madaniyat prinsiplariga mos keladi;
- o'qitish jarayonining mohiyati – bilishning sub'yektiv tajribasini to'plashdan iborat;
- o'qish sohasining shaxsning emosional-ehtiyojli sohasi bilan aloqadorligini o'rnatish, muassasalarda ta'lifning insonparvarlik maqsadlariga mos ma'naviy-psixologik muhitni tashkil etish

Mazkur tajriba-sinov ishlari natijalarini ilmiy-nazariy tahlil qilish jarayonida quydagilarga asosiy e'tibor qaratildi:

1. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida aksiologik yondashuv asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishda adabiyotlar, darsliklar va o'quv qo'llanmalarning mavjudligi, ularning saviyasi, shuningdek, ilg'or chet el OTMlaridagi ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlanganlik darajasi tahlil qilindi va aniqlandi.

2. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishda aksiologik yondashuvga asoslangan metodikaning samaradorligini aniqlash maqsadida anketa savol-javoblari tahlil qilindi va olingen natijalar umumlashtirildi.

3. Tajriba-sinov ishlari jarayonida yo'l qo'yilgan kamchiliklar aniqlandi va bartaraf etish choralarini ishlab chiqildi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash, ularni raqobatbaodosh kadr sifatida tarbiyalash, shuningdek, ularda innovatsion-akmeologik motivatsiyani rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslarini tadqiq etishning uch qismiga G'arb mamlakatlarida, MDH mamlakatlarida va O'zbekistonda o'rganilishi sifatida tasniflash mumkin.

G'arb mamlakatlarida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash, ularning kasbiy ko'nikmaalrini rivojlantirish, innovasion-motivasion yondashuvlar asosida ta'sir o'tkazishning pedagogik-psixologik asoslarini ga doir tadqiqotlar Boele de Raad, Gregory K.Patton, Wendell R.Gamer, S.D.Brookfield, L.M.Kulikova, R.M.Milgram, Seligman M.E.F., Vaillant G.E., Zullow H.H., Oettingen G., Drapeau Patti, Albert Bandura, Richard Walters, Louis Cohen kabi olimlarning olimlar tomonidan olib borilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan N.Gumilyev, S.Gorodeskiy, A.Axmatova, B.G.Ananyev, A.M.Derkach, A.S.Glinskiy, L.G.Gribeniyuk, K.M.Lulikova, I.I.Pronanov, P.I.Tretyakov, Z.M.Umetbayev, T.V.Zobnisa, N.V.Kurbet, A.M.Leontyev, G.V.Mironova, V.P.Medvedevlar tomonidan jismoniy ta'lismi isloh qilish, kknga yangicha metodologiya asosida yondashish, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida kasbiy-akmeologik motivatsiyani rivojlantirish masalalri o'rganilgan.

O'zbekistonda talabalarga aksilogik yondashuv asosida ta'lim berish va bu orqali ularning kasbiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish masalarini M.Bekmuradov, N.A.Muslimov, O'.M.Asqarova, M.Isov, R.Yusupov, A.T.Nurmanov, N.Sayidahmedov, S. Turg'unov, X.Ro'ziyev, Yo.R.Rahmanova, A.Sh.Soliyev, G.X.Tillayeva, B.X.Xodjayev kabi pedagog olimlar o'rgangan.

Biroq pedagogika fanlari doirasida aksilogik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishga doir masalalar chetda qolganligi, bu borada tadqiqot ishlarning deyarli olib borilmaganligi mazkur ishning dolzarbligi va ahamiyatini oshiradi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mazkur ishlar asosida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida aksilogik yondashuv asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishning amaliyotdagi holati va rivojlantirish yo'llari belgilab olindi. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida aksilogik yondashuv asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirish bo'yicha yo'l xaritasi, akmeni rivojlantirishga doir ko'nikma va malakalarni jahon standartlari darajasida rivojlantirish mazmuni, shakl va metodlari to'g'risida ma'lumotlar to'plandi. Muammo bo'yicha ilmiy-nazariy ma'lumotlar, o'quv-uslubiy materiallar jamlandi, ilg'or xorijiy OTMlar tajribasi o'rganildi.

Olingen natijalar umumlashtirildi, xulosalar chiqarildi va muammo doirasida doimiy monitoring o'rnatildi.

Professor-o'qituvchilar bilan tadqiqot doirasida olib borilgan anketa so'rovlari shuni ko'rsatdiki, Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishda aksilogik yondashuv samarali bo'ladi. Bu borada talabalarga akademik erkinlik berish, dunyoqarashini o'stirish, tafakkur tarzini o'zgartirish va akmeni rivojlantirish ahamiyatini yuqori baholandi. Bundan ko'rindaniki, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida akmeologik motivatsiyani aksilogik yondashuv asosida rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq [2].

Tajriba-sinov jarayonining ikkinchi bosqichida birinchi tajriba-sinov ishlari davomida aniqlangan muammolar, ziddiyat va kamchiliklarga barham berish, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida aksilogik yondashuv asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishning innovasion usullarini, o'qitishning samarali metod, shakl, vositalarini amaliyotda sinab ko'rish asosiy maqsad qilib qo'yildi. Tadqiqot ishining ilmiy faraziga ko'ra, ikkinchi bosqich tajriba sinov ishlari bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida akmeologik motivatsiya aksilogik yondashuvni qo'llash asosida birmuncha rivojlanganligini ko'rish mumkin bo'ladi. Bu borada quyidagi vazifalar belgilandi:

- tajriba va nazorat guruqlarini belgilash. Respondentlarga tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishdan ko'zlangan maqsad, vazifalar va ularning ushbu jarayonda tutgan o'rni haqidagi ma'lumotlarni berish;
- bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida aksilogik yondashuv asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi mezon, metodika hamda o'quv materiallari asosida tajriba guruhlari dars jarayonini tashkil etish;
- bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida aksilogik yondashuv asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishning doimiy monitoringini yaratish va uni davom ettirish, tajriba va nazorat guruhlardagi natijalarini taqqoslash hamda tahlil qilish;
- tajriba-sinov ishlari jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish;
- bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishda aksilogik yondashuv mezonlarni ishlab chiqish.

Ikkinchi bosqich tajriba-sinov ishlari Farg'ona, Namangan va Andijon davlat universitetlari va O'zbekiston jismoniy tarbiya va sport universitetidan tanlab olingen 8 ta guruhlarda olib borildi. Tanlangan guruhlarda aksilogik yondashuv asosida chuqurlashtirilgan tartibda, maxsus ta'lim metodikasi asosida olib borildi.

Ikkinchi bosqich tajriba-sinov ishi yakunida olingen natijalar umumlashtirildi va tahlil qilindi.

Uchinchi tajriba-sinov ishlari ushbu jarayondagi oxirgi va muhim bosqich bo'lganligi bois unga alohida e'tibor qaratildi. Bu bosqichda bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida aksilogik

## PEDAGOGIKA

yondashuv asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan nazariya, mezon hamda uni amalga oshirish metodikasining yutq va kamchiliklarini aniqlash, takomillashtirish hamda samaradorlik darajasini xolisona baholash asosiy maqsad qilib olindi.

Ushbu tajriba-sinov ishlari quydagi vazifalar bajarildi:

tajriba o'tkazilagan guruh talabalarining test, anketa so'rovlariga javoblari asosida aniqlangan akmeologik motivatsiyani rivojlantiruvchi bilim va ko'nikmalarini taqqoslash, xulosalar chiqarish;

belgilangan metodikani yangi tavsiyalar va xulosalar bilan boyitish;

o'tkazilgan barcha tajriba-sinov ishlarining umumiyl tahlilini ishlab chiqish.

Uchinchi bosqich tajriba-sinov ishlarining umumiyl tahlili oldingi tajriba-sinov ishlari natijalariga taqqoslandi.

Ilmiy tadqiqot ishini olib borish jarayonida quydagilarga ahamiyat qaratildi:

- bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida aksiologik yondashuv asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirish, o'zining akmesini o'stirish, o'z-o'zini tarbiyalashning innovasion metodikasining an'anaviy o'qitish metodidan ustunligini;

- darsni aksiologik yondashuv asosida bahs-munozarali tarzda olib borish, akmeologik motivatsiyani rivojlantirishga, o'z-o'zini rivojlangtirish, yuksak darajagi erishish jarayoniga ijobiy ta'sirini;

- ilg'or xorijiy tajriba asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishda bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini mustaqil shug'ullanish, mashg'ulotlarni tashkil etish, o'qib-o'rganishlariga imkoniyat yaratish lozimligi;

- bo'lajak jismoniy trarbiya o'qituvchilarida jismoniy tayyorgarlikni o'stirish, sport faoliyatida muvafaqiyatlarga erishish, jismoniy ta'llimda o'z akmesini shakllantirish va bu orqali o'zida va ta'llim olivchilarda akmeologik motivatsiyani rivojlantirish;

- aksiologik yondashuv asosida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularda jismoniy trabiya va sport sohasida yuksak natijalarga erishishlarida o'z ruhiyatini yuksaltirish lozimligi va bu jarayonni butun jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash tizimiga joriy etish zaruraligini nazariy asoslash;

Tanlab olingen oliy ta'llim muasasalarida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari tahliliga ko'ra, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida akmeologik motivatsiyani rivojlantirish tizimi milliy ta'llim standartiga ham, ilg'or xorijiy oliy ta'llim muasasasi mezonlariga ham, Bolon'ya konvensiyasiga ham javob bermasligini ko'rsatib berdi.

Tajriba-sinov ishlari ilmiy ish gipotezasining to'g'riligini isbotladi. Ya'ni bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishda aksiologik yondashuvdan foydalanish va bu orqali qadriyatli munosabatni rivojlantirish asosida talabalarda yuksak natijalarni erishishga motivasion munosabatni shakllantirish yuqori samara berishini isbotladik.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari tashkil etish va o'tkazish jarayonida umumiyl maqsadni amalga oshirish uchun quydagilar bajarildi:

1. Professor-o'qituvchilar va bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida akmeologik motivatsiyani rivojlanishining mayjud holatini o'rganish. Jismoniy ta'llim professor-o'qituvchilari va talabalari orasida test, anketa so'rovlarini o'tkazish, suhbatlar, muloqotlar tashkil etish, dars jarayonini kuzatish, ta'llim mazmunining mayjud holatiga nisbatan o'qituvchilar fikr-mulohazalarini o'rganish, tahlil etish kabi holatlar mazkur vazifani samarali hal etish uchun asos bo'lib xizmat qildi.

2. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida aksiologik yondashuv asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirish imkonini beruvchi shart-sharoitlarni aniqlanadi. Vazifani ijobiy hal etishda ularning o'z akmesini rivojlantirish, unga motivatsiya bera olish, kasbiy faoliyatda yuksak marralarni egallash istagi, motivi va maqsadini shakllantirishga yordam beruvchi umumiyl omillar aniqlandi, rivojlantirish tizimi yaratildi.

3. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida aksiologik yondashuv asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishga to'siq bo'layotgan muammolar hamda ularni bartaraf etish choratadbirlari belgilanadi. Mazkur vazifaning amalga oshirilishi oliy ta'llim muassasasi professor-o'qituvchilari va talabalari bilan bevosita muloqot, suhbat hamda bahs-munozaralar, o'zaro tajriba almashish asosida amalga oshirildi.

4. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishda aksiologik yondashuv asosida ishlab chiqilgan texnologiyaning qulay va samaradorligi belgilab

olindi. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlashga yo'naltirilgan fanlar doirasidagi samarali ta'lim metodlarini qo'llash mexanizmlari, talabalarda akmeologik motivatsiyani rivojlantirishga oid yondashuvlar olib borilgan pedagogik faoliyat ko'rsatkichlari tahlili asosida ayomalga oshirildi.

5. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida akmeologik motivatsiyani rivojlanish xolatini aniqlovchi baholash mezonlari ishlab chiqildi. Mezonlar ilmiy ishda ilgari surilgan akmeologik motivatsiyani rivojlantirish usullari, shakkllari va ijtimoiy omillariga muvofiq ishlab chiqildi.

Tajriba-sinov ishlari bir qator tamoyillarga muvofiq olib borildi:

1. Tajriba-sinov ishlari maqsadining aniqligi.

2. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida aksiologik yondashuv asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirish jarayonida haqqoniylilik va xolislikning ta'minlanganligi.

3. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida aksiologik yondashuv asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishga oid pedagogik faoliyatning izchil, uzviy, tizimli va maqsadga muvofiq tashkil etilganligi.

4. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida aksiologik yondashuv asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishga oid ta'lim-tarbiya jarayoniga nisbatan fan o'qituvchilarining ijobiy, ijodiy va texnologik yondashuvlari.

Ushbu tamoyillar tajriba-sinov ishlaring samarali olib borilishi, ko'zlangan natijalarning ijobiy hal qilinishida muhim omil bo'lib xizmat qildi.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida aksiologik yondashuv asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirish muammosini nazariy va amaliy jihatdan o'rganish, uni rivojlanituvchi pedagogik shart-sharoitlar va ob'yektiv, sub'yektiv omillarni aniqlash, akmeologik motivatsiyani rivojlantirish tizimini yaratish va nazariy jihatdan asoslab berish kerak. Ushbu tadqiqot davomida aniqlangan ilmiy xulosalar va qo'lga kiritilgan ko'rsatkichlarning tabiatи tadqiqot mazmuniga mos kelishi, tanlangan uslubga ekvivalent uslub borligi va u mavjud uslublar ichida rejalashtirilgan tadqiqotga eng muqobil ekanligi aniqlanmog'i lozim [3].

Birinchi va ikkinchi tajriba-sinov ishi davomida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida akmeologik motivatsiyani rivojlanish xolatini test va anketa so'rovnomalari yordamida aniqlandi.

Ikkinci tajriba-sinov ishlari davomida tajriba guruh talabalari ham, nazorat guruh talabalari ham anketa, test va amaliy topshirishlar, psixologik savollarga qoniqarsiz javob berishdi. Uchinchi bosqich tajriba-sinov ishlari davomida o'tkazilgan so'rovnomalar tahlili tajriba guruhida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida akmeologik motivatsiyani rivojlanganligini ko'rsatdi. Bu biz tomonimizdan ishlab chiqilgan bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida aksiologik yondashuv asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim mazmuni va belgilangan metodikaning samaradorligini isbotladi.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida aksiologik yondashuv asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishni baholash mezonlari va samaradorlik darajasini aniqlashga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlari pedagogik tajriba metodi yordamida tashkil etildi:

Tajriba-sinov ishlari jarayonida mazkur metoddan foydalanish quyidagi pedagogik vazifalarni hal qilishga imkon berdi:

- bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida aksiologik yondashuv asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim mazmuni va belgilangan texnologiya maqsadga muvofiq tanlanganligini aniqlash;

- bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida aksiologik yondashuv asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi yangicha texnologiyani ta'lim tizimiga olib kirish uchun sarflanadigan vaqt hajmi, professor-o'qituvchining pedagogik mahorati, talabalar jismoniy-aqliy qobiliyati va salohiyati, ilmiy adabiyotlarni mustaqil ravishda o'zlashtirishlari va faoliyatlari o'rtaida o'zaro aloqadorlik ta'minlanganligini asoslash;

- belgilangan metodikaning mavjud pedagogik shart-sharoitlarga muvofiq kelishini asoslash.

Mazkur texnologiya tadqiqot ishida ilgari surilgan gipotezaning qanchalik to'g'riligini aniqlash, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida aksiologik yondashuv asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini batafsil o'rganish, eng aniq va zarur ma'lumotlarni yig'ish, dalillarga asoslangan ilmiy xulosalar chiqarish imkoniyatini berdi.

## PEDAGOGIKA

Tadqiqotda sifat darajalari bo'yicha yakuniy maqsadlarni loyihalashga faoliyatli yondashuv to'g'risidagi tizimli prinsiplar, diagnostik maqsadga yo'nalganlik, strukturaviy-mazmunli va funksional yaxlitlik, intensivlik, yakunlanganlik prinsiplari amalga oshirilgan [4].

Pedagogik axloqqa riosa etishga alohida e'tibor qaratildi, shu sababli tadqiqot uchun quyidagi prinsiplarga yo'nalganlik aktual hisoblandi.

Diagnostik metodikaning ilmiy asoslanganligi prinsipi u valid va ishonchli bo'lishini, ya'ni ishonish mumkin bo'lgan natijalarini ifodalanishini talab etadi.

Zarar yetkazmaslik prinsipi diagno'stika natijalaridan respondentlarga zarar ishlatslikni nazarda tutadi.

Test natijalari bo'yicha xulosalarning obyektivligi prinsipi ular ilmiy asoslangan bo'lishini, ya'ni ishonchli metodikalar yordamida o'tkazilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqishini hamda tadqiqotni o'tkazuvchilar va uning natijalaridan foydalanuvchilarning sub'yektiv ustanovkalariga bog'liq bo'lmasligini talab etadi.

Tavsiyalarning samaradorligi prinsipi bunday tavsiyalar albatta amaliy foydali bo'lishini ko'zda tutadi. Foydasiz tavsiyalarni taklif etish axloqqa va kasbiy etikaga zid hisoblanadi.

Diagnostik metodikalar diagnostika o'tkazilishi ko'zdautilgan ob'yekt nazariyasi asosida yuzaga keladi va rivojlanadi. Masalan intellekt testlari uning tabiatini, tuzilishi, ahamiyati va hayotiy ifodalari to'g'risidagi ilmiy tasavvurlarga asoslanadi [5]. Shaxs testlari shaxsning ma'lum nazariyasi, tipologiyasi va psixologik tuzilmasidan, moslashish qobiliyati va ma'lum inson shaxsi to'g'risida ob'yektiv xulosaga kelib mumkin bo'lgan boshqa belgilardan kelib chiqadi.

Tadqiqot uchun zarur ma'lumotlar bankini shakllantirishda pedagogik diagnostika metodlari keng qo'llanildi. So'rovnomada foydalaniladigan diagno'stik metodlar o'rganilayotgan muammo bo'yicha kerakli ma'lumotlarni standart, maxsus tanlangan savollar seriyasiga yozma yoki og'zaki javoblarning tahlilidan olish mumkin bo'lishiga asoslanadi.

## XULOSA

Xulosa o'laroq shuni aytish joizki, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida aksiologik yondashuv asosida akmeologik motivatsiyaning umumiyo ko'satkichi unchalik yuqori emas. Kuchli va salohiyatl xorijiy oliv ta'lif muassasalari talabalarining akmeologik motivasiyasini rivojlantirishda aksiologik yondashuv imkoniyatlaridan foydalanilmoxda. Ushbu tadqiqot doirasida oliv ta'limdag'i mavjud holatni o'zgartirish, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida aksiologik yondashuv asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirish maqsadida ajratib olingan alohida guruhlarda maxsus yangicha ta'lif jarayoni olib borildi. Butun bir semestr davomida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida aksiologik yondashuv asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirish ustida ish olib borildi. Semestr oxirida tanlab olingan guruhlarda holat tubdan o'zgardi.

Tajriba sinov ishlarini qayta o'tkazish orqali bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishni aksiologik yondashuv asosida o'zgargan holatini aniqlash edi va bu holat Farg'onan davlat universitetida 54 % ni, Andijon davlat universiteti da 52% ni, Namangan davlat universitetida 57% ni va O'zbekiston jismoniy tarbiya va sport universitetida 63% ni tashkil qildi. Shunday ekan, biz dissertatsiyada ilgari surgan akmeologik motivatsiyani rivojlantirishda aksiologik yondashuv ijobiy ta'sir ko'rsatdi va mavjud holatni o'zgartirdi. Tajriba jarayonida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishda aksiologik yondashuvdan foydalanishga asoslangan ta'lif metodikasidan foydalanildi. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishda aksiologik yondashuvdan foydalanish to'rt bosqichda amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlarining natijalari bo'yicha samaradorlik aniqlandi.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishda aksiologik yondashuv samarali bo'ladi. Bu borada talabalarga akademik erkinlik berish, dunyoqarashini o'stirish, tafakkur tarzini o'zgartirish va akmeni rivojlantirish ahamiyatini yuqori baholandi. Bundan ko'rindaniki, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida akmeologik motivatsiyani aksiologik yondashuv asosida rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Tajriba-sinov ishlari ilmiy ish gipotezasining to'g'riligini isbotladi. Ya'ni bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishda aksiologik yondashuvdan foydalanish va bu orqali qadriyatli munosabatni rivojlantirish asosida talabalarda yuksak natijalarini erishishga motivasion munosabatni shakllantirish yuqori samara berishini isbotlandi.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlashga yo'naltirilgan fanlar doirasidagi samarali ta'lif metodlarini qo'llash mexanizmlari, talabalarda akmeologik motivatsiyani rivojlantirishga oid yondashuvlar olib borilgan pedagogik faoliyat ko'rsatkichlari tahlili asosida ayomalga oshirildi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvatlash to'g'risida»gi PF-5106-son Farmoni. Xalq so'zi. 2017-yil 6-iyul.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmoni.
3. Abdullayeva Sh.A., Xurramov E.E. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini innovasion faoliyatga tayyorlash. Zamoravniy ta'lif jurnali. 2016. №5. –B. 17.
4. Axmedov F.Q, Yaxshiyeva M.Sh. Oliy ta'lif muassasalarida talaba qizlar jismoniy madaniyatini yanada takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari // Science and Education Scientific Journal Volume 1 Issue 1. –B. 408. [www.openscience.uz](http://www.openscience.uz)
5. Осокин Г.В. Основы профессиональной подготовки педагога к развитию физической культуры в учебно-тренировочном процессе: дис. д-ра пед. наук. /Г. В. Осокин. –Москва, 2010. –С.89.